



ARTICLE INFO

Received: 10th July 2023

Accepted: 15th July 2023

Online: 19th July 2023

KEY WORDS

Jinoiy jazo, ozodlikdan mahrum qilish, xatti-harakat, ijtimoiy xavfli qilmish, tamom bo'lmagan jinoyat, jazo tayinlash, hukm, Jinoyat kodeksi, Oliy Sud Plenumi qarorlari.

OZODLIKDAN MAHRUM QILISH JAZOSINING TURLARI

Sayfullayev O'lmasjon Shavkat o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar akademiyasi Jinoyat-protsessual huquqi kafedrasida o'qituvchisi

Kamolova Sabina Xamza qizi

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar akademiyasi 1-kurs kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8164493>

ABSTRACT

Ushbu maqolada jazo tushunchasi va maqsadlari, ozodlikdan mahrum qilish jazosi mazmuni, turlari, ushbu jazoni tayinlashda yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari haqida so'z boradi.

Hech kimning unutishga haqqi yo'q – qonun talablari va inson huquqlari – biz uchun oliy qadriyat[1].

Sh.M.Mirziyoyev (Oliy Majlisiga Murojaatnomasidan)

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy yo'nalishlardagi barcha islohotlar o'z mohiyatiga ko'ra, inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlashga qaratilganligi bilan e'tiborga molikdir. Jinoyat qonunchiligida amalga oshirilayotgan davlat siyosati ham birinchi galda har bir shaxs manfaatlarini qonun asosida odilona himoya qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyasi 26-moddasida "Insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas", -deya belgilab qo'yilganligi ham bejizga emas[2]. O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini isloh qilishning eng muhim vazifasi jinoyat, jinoyat-protsessual qonun hujjatlarini va jinoiy jazo tizimini izchillik bilan bosqichma-bosqich liberallashtirish hisoblanadi. O'zbekistonda davlat mustaqilligi sharoitida o'tgan qisqa davr ichida jinoyat qonunchiligi borasida ham bir qator huquqiy islohotlar amalga oshirildi va bu islohotlar mohiyat jihatidan, yuqorida aytib o'tilganidek faqat odillik tamoyiliga amal qiladi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashga oid davlat siyosatida, huquqni qo'llash amaliyotidagi tub o'zgarishlar mamlakatda ijtimoiy-siyosiy, kriminogen vaziyatga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, o'lim jazosini bekor qilinishi O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini, jinoiy jazolarni liberallashtirish borasida amalga oshirilayotgan jarayonlarning muhim yo'nalishi bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 1-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida"gi Farmoni hamda O'zbekiston



Respublikasining 2007-yil 11-iyuldagi “O‘lim jazosi bekor qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuniga kora, [2008-yilning](#) 1-yanvaridan o‘lim jazosi o‘rniga umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi joriy qilindi[3]. Ushbu qonun hamda farmon insonning yashash huquqini e‘lon qiluvchi va mustahkamlovchi xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari va normalariga mos keladi.

Qolaversa, joriy yilning 1-may kuni kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining Yangi Konstitutsiyasining 25-moddasi 2-qismida “O‘zbekistonda o‘lim jazosi taqiqlanadi” deb belgilab qo‘yilgani alohida e‘tiborga molik.

Jinoyat qonunchiligi bo‘yicha ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxslarga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan muayyan bir jazo turi qo‘llaniladi. Jinoyat kodeksining 43-moddasiga ko‘ra jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxslarga nisbatan quyidagi jazolardan biri qo‘llanilishi mumkin:

- ❖ Jarima;
- ❖ Muayyan huquqdan mahrum qilish;
- ❖ Majburiy jamoat ishlari;
- ❖ Axloq tuzatish ishlari;
- ❖ Xizmat bo‘yicha cheklash;
- ❖ Ozodlikni cheklash;
- ❖ Intizomiy qismga jo‘natish;
- ❖ Ozodlikdan mahrum qilish;
- ❖ Umrbod ozodlikdan mahrum qilish.

Ozodlikdan mahrum qilish asosiy jazo choralaridan biri bo‘lib, o‘z navbatida mazkur jazo uchga bo‘lib tahlil qilinadi. Ular:

- a) Uzoq muddatli bo‘lmagan ozodlikdan mahrum qilish;
- b) Uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish;
- c) Umrbod ozodlikdan mahrum qilish.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi ozodlikdan mahrum qilish jazosi sirasiga kiritgan bo‘lib, Jinoyat kodeksida belgilangan bor yo‘g‘i ikki turdagi jinoyatlarga nisbatan qo‘llaniladi. Ya‘ni umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo o‘lim jazosi o‘rniga kiritilgan favqulodda jazo chorasi bo‘lib, mahkumni muddat belgilanmagan holda jamiyatdan batamom ajratishni nazarda tutadi. Mazkur jazoni xususiyatlari haqida hamda, uni qo‘llash bo‘yicha tushuntirishlar O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining (14.11.2007-yil. 15-son) “Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi Qarorida batafsil bayon etilgan.

Amaldagi jinoyat qonunchiligi bo‘yicha umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo faqat javobgarlikni o‘g‘irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o‘ldirish (JK 97-moddasi ikkinchi qismi) va odam o‘lishiga yoki boshqa og‘ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo‘lgan terrorizm (JK 155-moddasi uchinchi qismi) sodir etgan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi. Yuqorida nomi tilga olingan Oliy Sud Plenumining Qarori va Jinoyat kodeksi 50-moddasida uzoq muddatli, yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi qay holatlarda qo‘llanishi mumkinligi mukammal yoritib berilgan. Unga ko‘ra ozodlikdan mahrum qilishning birinchi muddati o‘n besh yildan yigirma yilgacha muddatda, ya‘ni oddiy turdagi ozodlikdan mahrum



qilish; ikkinchisi, yigirma yildan ortiq, biroq yigirma besh yildan ko'p bo'lmagan muddatda, ya'ni uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish; uchinchisi, muddat belgilamagan holda mahkumni jamiyatdan batamom ajratish, ya'ni umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi hisoblanadi. Ammo yuqorida sanab o'tilgan muddatlar, ya'ni Jinoyat kodeksining 97-moddasi 2-qismi sanksiyasida aniq farqlab ifodalanmagan. Ya'ni umumiy tarzda o'n besh yildan yigirma besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish deb ko'rsatilgan. Vaholanki, Jinoyat kodeksining (ozodlikdan mahrum qilish) 50-moddasi 2-qismida: "Ozodlikdan mahrum qilish bir oydan yigirma yilgacha" - deb, shu moddaning keyingi qismi (3-qismi) esa "Uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish yigirma yildan ortiq, lekin yigirma besh yildan ko'p bo'lmagan muddatda belgilanadi" degan mazmunda yozilgan[4]. Shunga o'xshash noto'g'ri ifodalash Jinoyat kodeksining 155-moddasi (Terrorizm) 3-qismi sanksiyasida ham uchraydi.

Fikrimizcha, Jinoyat kodeksining 50-moddasi ikkinchi va uchinchi qismi talablariga rioya qilgan holda, Jinoyat kodeksi 97-moddasi 2-qismi hamda 155-moddasi 3-qismi sanksiyasi quyidagicha ya'ni: "O'n besh yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki yigirma yildan yigirma besh yilgacha (uzoq muddatli) ozodlikdan mahrum qilish yoxud umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan jazolanadi" - deb tuzatilishi kerak.

Mazkur jinoyatlarga nisbatan sud uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazosini ushbu jinoyatlarga nisbatan qonunda umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanishi istisno etilgan, shuningdek ish holatlariga ko'ra aybdorga nisbatan umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi yoki o'n besh yildan yigirma yil muddatgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi maqsadga muvofiq emasligi haqidagi xulosaga kelgan hollarda tayinlanishi mumkin.

Sud jinoyatchiga umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni tayinlashda quyidagi holatlarni inobatga olishi lozim bo'ladi:

- Ish bo'yicha aybdor tomonidan g'ayriinsoniy xatti-harakatlarga yo'l qo'yilganligidan dalolat beruvchi holatlar;
- Jinoyat sodir etgan shaxs jamiyat uchun mutlaq xavfli ekanligidan dalolat beruvchi holatlar;
- Jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan boshqa jazo tayinlanishi imkoniyatini istisno etuvchi alohida holatlar[5].

Shuning uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlayotganda sud hukmining tavsif qismida bunday qaroq qabul qilinishiga qanday sabablar asos bo'lganligini va yuqorida ko'rsatib o'tilgan holatlarni ko'rsatib o'tishi lozim bo'ladi.

Bundan tashqari "Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi Oliy sud Plenumining (14.11.2007-yil.15-son) Qarorining to'rtinchi qismida uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tugallanmagan jinoyat uchun tayinlanishi mumkin emas deb ko'rsatib o'tgan. Ammo amaldagi Jinoyat kodeksida "tugallanmagan jinoyat" degan tushuncha mavjud emas aksincha, "tamom bo'lmagan jinoyat" deb tushuncha berilgan. Jinoyat kodeksining ikkinchi bo'limi 6-bobida aynan tamom bo'lmagan jinoyatlar tushunchasi aks etgan. Tamom bo'lmagan jinoyatlar turlariga nazar tashlaydigan bo'lsak. Ular quyidagilardan iborat:

- a) jinoyatga tayyorgarlik ko'rish
- b) jinoyat sodir etishga suiqasd qilish



c) jinoyatdan ixtiyoriy qaytish kabilar kiradi.

Fikrimizcha, Oliy Sud Plenumi Qaroridagi “tugallanmagan “ tushunchasini “tamom bo‘lmagan jinoyat” degan tushunchaga almashtirish kerak.

E’tibor beradigan bo‘lsak, Plenum qarorining to‘rtinchi qismi 1-bandida umrbod ozodlikdan mahrum qilish va uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazolari ayolga, o‘n sakkiz yoshga to‘lmasdan jinoyat sodir etgan shaxsga va oltmish yoshdan oshgan erkaklarga nisbatan ham tayinlanishi mumkin emasligi haqida tushuntirish berilgan. Qolaversa, mazkur bandda: “Oltmish yoshdan oshgan erkaklarga nisbatan bunday jazolar tayinlanishi mumkin emasligi to‘g‘risidagi qoida birinchi instansiya sudi tomonidan aybdorning hukm chiqarish kuniga qadar, apellatsiya shikoyati berilgan holda, ish apellatsiya instansiyasida ko‘rilgan kunga qadar bo‘lgan yoshidan kelib chiqib qo‘llaniladi”- deb ko‘rsatilgan. Ammo shaxs jinoyat sodir etish chog‘ida oltmish yoshga to‘lgan bo‘lsachi degan savol ochiq qolgan. Shaxsni oltmish yoshga to‘lishi muddatiga aniqlik kiritish lozim. Shu sababdan Oliy Sud Plenumi Qarorining 4-bandi 2-qismini “jinoyat sodir etgan paytida oltmish yoshga tolgan shaxs yoki birinchi instansiya sudi tomonidan aybdorning hukm chiqarish kuniga qadar, apellatsiya shikoyati berilgan holda, ish apellatsiya instansiyasida ko‘rilgan kunga qadar bo‘lgan yoshidan kelib chiqib qo‘llaniladi (Masalan, shaxsning voyaga yetganligini aniqlashda shaxsning jinoyat sodir etish paytida o‘n sakkiz yoshga to‘lgani muhim bo‘lgani kabi)” degan mazmunida tuzatish kiritishi maqsadga muvofiq. Shu sababli ham bu bandga jinoyat sodir qilish chog‘ida oltmish yoshga to‘lgan erkaklarga nisbatan qo‘llash to‘g‘risida qoidani qo‘shish lozim.

Jinoyat kodeksining 50-moddasining 5-qismida ozodlikdan mahrum qilish ushbu kodeksning 60-moddasida nazarda tutilgan “bir necha jazolarni” qo‘shish tartibida tayinlanganda, uning muddati yigirma besh yilgacha belgilanishi mumkinligi to‘g‘risidagi qoida mavjud. Ammo bu qoidaga ham aniqlik kiritishni talab etadi. Mazkur holatda gap bir nechta jinoyatlar yuzasidan jazolarni emas, balki bir necha hukmlar bo‘yicha jazolarni qo‘shish haqida ketadi. Ya’ni, Jinoyat kodeksi 59-moddasi va Jinoyat kodeksi 60-moddasi talabiga rioya qilish kerak. Shu sababli Jinoyat kodeksi 50-moddasi 5-qismi matnini “bir necha hukmlar yuzasidan jazo tayinlash” deb o‘zgartirish kerak.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, hozirgi yangilanayotgan O‘zbekiston jamiyatini iloh qilish, ayniqsa jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan istiqbolli tadbirlarni o‘z vaqtida belgilanishi jinoiy jazo maqsadini yanada samarali ro‘yobga chiqarishda ko‘maklashishi shubhasizdir. Kichik izlanishimizda esa biz aynan shu jihatlarga ahamiyat qaratishga harakat qildik.

References:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Oliy Majlisga murojaatnomasi. <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn>
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/-6445145>
3. O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-iyuldagi “O‘lim jazosi bekor qilinishi munosabati bilan o‘zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/acts/-1317847?ONDATE=01.01.2008%2000#-1317995>



4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/acts/-111453>
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007-yil
6. 14-noyabrdagi "Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 15-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/-1593076>